

INGLIZ TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'RGANISHDAGI QIYINCHILIKLAR

Karimova Sabina Erkinovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi

Email: sabinakarimova196@gmail.com

Tel: 88 678 17 28

Kirish qism: Bugungi globallashuv davrida ingliz tili jahon miqyosida eng ko‘p qo‘llaniladigan til sifatida e’tirof etiladi. U xalqaro muloqot, ta’lim, fan-texnika, biznes va diplomatiya sohalarida muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Biroq, ingliz tilini egallah jarayoni har bir o‘rganuvchi uchun bir xil kechmaydi. Til o‘rganishda turli psixologik, lingvistik hamda tashkiliy muammolar yuzaga keladi. Xususan, talaffuzdagi qiyinchiliklar, grammatik murakkabliklar, tinglab tushunishdagi muammolar, lug‘at boyligining yetishmasligi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchszilik o‘quvchilarga sezilarli darajada to‘sinqinlik qiladi. Shu bois ushbu mavzuda ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish jarayonida uchraydigan asosiy qiyinchiliklar va ularni yengib o‘tish yo‘llarini ko‘rib chiqish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili, ikkinchi til, til o‘rganish, qiyinchiliklar, talaffuz, grammatika, lug‘at boyligi, tinglab tushunish, psixologik to‘siqlar, resurslar, metodika, global til.

Introduction: Bugungi globallashuv davrida ingliz tili xalqaro aloqa, ilm-fan, texnologiya, biznes va ta’lim sohalarida yetakchi o‘rin tutadi. Shu sababli dunyoning turli hududlarida ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Ammo ushbu jarayon bir qancha qiyinchiliklar bilan ham kechadi. Quyida ingliz tilini o‘rganishda uchraydigan asosiy muammolar va ularni yengish yo‘llari haqida so‘z yuritiladi.

Talaffuzdagi qiyinchiliklar bilan ishlash;

Ingliz tilidagi ayrim tovushlar, masalan, “th” yoki so‘z oxiridagi jarangli undoshlar o‘zbek tilida mavjud emasligi sababli to‘g‘ri talaffuz qilishda muammolar tug‘diradi. Bundan tashqari, ingliz tilida urg‘u va intonatsiya yozilish bilan mos kelmagani uchun o‘quvchilar ko‘pincha chalkashib ketadi. Bunday muammolarni muntazam tinglash mashqlari, audio va video materiallar bilan ishlash orqali yengish mumkin.

Lug‘at boyligining yetishmasligi;

Til o‘rganishda so‘z boyligi eng muhim omillardan biridir. Ingliz tilida ko‘plab so‘zlarning bir nechta ma’nosini borligi o‘rganuvchilarni chalg‘itadi. Shu bois lug‘atni

boyitish uchun muntazam ravishda kitob o‘qish, yangi so‘zlarni qayd qilish va ularni amalda ishlatishga harakat qilish tavsiya etildi.

Grammatik murakkabliklar;

Ingliz tilidagi zamonlar (tenses), modal fe’llar, artikllar va qat’iy so‘z tartibi ko‘pchilik uchun qiyin bo‘ladi. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi erkin so‘z tartibiga o‘rgangan o‘rganuvchilar uchun inglizcha gap tuzilmasiga moslashish vaqt talab etadi. Ushbu muammoni yechish uchun grammatikani bosqichma-bosqich o‘rganish va uni amaliyot bilan mustahkamlash foydalidir.

Tinglab tushunishdagi qiyinchiliklar;

Ingliz tilining turli lahjalari va urg‘ulari mavjudligi sababli tinglab tushunish oson emas. Seriallar, podcastlar va audiokitoblarni muntazam tinglash orqali ushbu ko‘nikmani asta-sekin rivojlantirish mumkin.

Psixologik to‘silalar; Ko‘plab o‘rganuvchilar xato qilishdan qo‘rqadi va gapirishdan tiyiladi. Bu holat til o‘rganish jarayonini sekinlashtiradi. Shu sababli xatolarni o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilish va kichik muvaffaqiyatlarni qadrlash muhimdir.

Resurslarning yetishmasligi;

Ba’zi hududlarda sifatli o‘qituvchilar yoki zamonaviy o‘quv materiallari yetarli emas. Ammo internet imkoniyatlaridan foydalanib, bepul platformalar (Duolingo, BBC Learning English, Cambridge Resources va boshqalar) orqali bu muammoni bartaraf etish mumkin.

Muammolarni yengish yo‘llari;

- 1.Har kuni kamida 15–30 daqiqa ingliz tilida mashq qilish.
- 2.Ingliz tilidagi filmlar, qo‘silalar va videolar orqali tilni tabiiy muhitda eshitish.
- 3.Ingliz tilida muloqot qilish uchun suhbatdosh topish yoki onlayn guruhlarga qo‘shilish.
- 4.O‘zbekcha-o‘quv resurslaridan tashqari, ingliz tilidagi maqola va kitoblardan foydalanish.
- 5.Kundalik yoki blog yuritish orqali yozish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Xulosa

Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish murakkab bo‘lishi mumkin, biroq to‘g‘ri metodika, qat’iyat va muntazam mashg‘ulotlar orqali barcha qiyinchiliklarni yengish mumkin. Muhimi, xatolardan qo‘rmaslik, o‘z ustida muntazam ishslash va ingliz tilini kundalik hayotning ajralmas qismiga aylantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education Limited.
2. Richards, J. C., & Schmidt, R. (2010). Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. Pearson Education.

3. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
4. BBC Learning English. (2024). <https://www.bbc.co.uk/learningenglish>
5. British Council. (2024). Learning English Resources. <https://learnenglish.britishcouncil.org>
6. Cambridge English Resources. (2024). <https://www.cambridgeenglish.org>
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2022). Ingliz tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha tavsiyalar. Toshkent: Ma’naviyat.